




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**ONA TILI FANI  
2021-2022-O‘QUV YILI  
IMKONIYATLARI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN  
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB VA  
MAKTAB- INTERNATLARNING 9-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O‘TKAZISH BO‘YICHA  
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



**TOSHKENT - 2022**

2021-2022-o‘quv yili uchun



Imtihon materiallari Respublika ta'limi markazining navbatdagi ilmiy-metodik kengashida muhokamaga qo'yilib, tavsiya qilindi. **(2022-yil 25-martdagi 1-son Ilmiy-metodik kengash qarori)**.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish bo'yicha metodik tavsiya va materiallarni tijorat maqsadida ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari metodbirlashmalari tomonidan yakuniy nazorat imtihon materiallariga 15–20% gacha o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

### **Tuzuvchilar:**

**M.Ataxodjayeva**–Toshkent shahar, M.Ulug'bek tumanidagi 101-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

**M.Boqijonova**–Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

## **YAKUNIY NAZORAT IMTIHONLARINI O'TKAZISH TARTIBI**

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning bitiruvchilari yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Ijodiy bayonda ko'proq badiiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog'liqlik to'g'risidagi mavzular yoritiladi.

O'quvchilar bayonning quyidagi turlari bo'yicha **ijodiy bayon** yozadilar:

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish;
- Boshlab berilgan matnni o'z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish;
- Matn shaxsini o'zgartirib ijodiy bayon yozish;
- Grammatik topshiriqli ijodiy bayon yozish.

Bayon matnlari 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo'lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosida topshiriq beriladi. Bir o'quvchi 3 ta konvertdan bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo'yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo'yiladi. O'qituvchi tomonidan (200 - 210 ta so'zdan iborat bo'lgan) ijodiy bayon matni og'zaki va daktil nutqda ikki (lozim bo'lsa uch) marta o'qib eshittiriladi. O'quvchilar eshitgan matni yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida (180 - 200 ta so'zdan iborat bo'lgan) 2 - 2,5 bet bo'lishi lozim.

### **IJODIY BAYON YOZISH UCHUN 180 DAQIQA BERILADI.**

Ijodiy bayon matnlari o'qituvchi tomonidan tanlanadi va ta'lim muassasi metod birlashmasida muhokama qilinib ma'qullanadi. Ma'qullangan materiallar ta'lim muassasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.



## BAYON QUIYIDAGI MEZONLAR ASOSIDA BAHOLANADI:

№	Mezonlar	Ball
1	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; bayon mantiqli va muntazam bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubiy adabiy til talablariga mos bo'lib, mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa	5
2	Matn reja asosida yoritilib, fikr bayonida muntazamlilik qisman berilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada ikki-uch kamchilik bo'lib, savodxonlikda uchtagacha imlo, uchtagacha ishorat va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa	4
3	Mavzu to'liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqelik izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda to'rttagacha imlo, to'rttagacha ishorat, uchtagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa	3
4	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada besh-oltitagacha xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda yettitagacha imlo, yettitagacha ishorat va yettitagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa	2
5	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada, savodxonlikda o'ndan ortiq xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa	1



## KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIM MUASSASALARI UCHUN IJODIY BAYON MAVZULARIDAN NAMUNALAR

### 1-VARIANT

#### YANGI O'ZBEKISTONDA BAXTLI YASHAYLIK

Biz O'zbekistonda yashaymiz. Shu yurtda tug'ilib, voyaga yetdik. O'zbekiston serquyosh o'lka. O'zbek xalqi esa mehmondo'st xalqdir. O'zbekistonga dunyoning turli burchaklaridan mehmonlar, sayyohlar tashrif buyuradilar. O'zbek xalqi juda ko'ngli ochiq xalq. Ular har bir mehmonni ochiq chehra bilan kutib oladilar. Jonajon O'zbekistonimizda turli millat vakillari bir oila bo'lib tinch va totuv yashamoqdalar. O'zbek xalqi mustaqillikni necha yillardan beri orzu qilib yashar edi... Nihoyat, 1991-yil 1-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Shu kundan boshlab mustaqillik shamollari esa boshladi.

Darhaqiqat, istiqloq bizga ko'plab ne'matlarni berdi. So'z erkinligi, diniy va huquqiy erkinliklar shular jumlasidandir. Mustaqillik tufayli yurtimizda ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakatimizning ko'chalari, mahallalari, qishloq va tumanlari tubdan o'zgardi. Yangi-yangi ko'p qavatli uylar, maktab va bolalar bog'chalari, suv havzalari, stadionlar qurildi. Ko'plab istirohat bog'lari, dam olish maskanlari, binolar va ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar barpo etildi. Xullas, qisqa vaqt ichida yurtimiz tanib bo'lmas darajada o'zgardi. Ko'plab sohalarda tubdan o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi zavod va fabrikalar, shuningdek, avtomobil zavodi ishga tushirildi.

Ta'lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Yoshlarning bilim olishi va kasb-hunar o'rganishiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 5 ta muhim tashabbus loyihasi ilgari surildi. Bu loyiha doirasida yoshlarning sportga, san'atga, kitobxonlikka, kompyuter savodxonligiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalariga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. 2022-yilni yurtimizda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" deb e'lon qilindi. Bu yilda ham yoshlarga yanada ko'p e'tibor qaratilib, imkoniyatlar eshigi ochilmoqda.

Yosh tadbirkorlarga davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy – joy olish uchun subsidiyalar, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga nafaqalar ajratilmoqda. Oliy o'quv yurtiga kirish uchun qo'shimcha kvotalar, nogironligi bor insonlar uchun imtiyozlar berilmoqda. Xotin-qizlarning bilim olishi va mehnat qilishi uchun alohida e'tibor qaratilmoqda.

Biz yoshlar Vatanimiz rivojiga a'lo o'qishimiz va yaxshi xulqimiz bilan o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik.

**(301 ta so'z)**

## 2-VARIANT IBRAT

Otam bilan sirkka bordik. Chipta uchun navbatga turdik. Oldimizda erotin va ularning olti bolasi turardi. Ular juda xursand holda sirk haqida gaplashishardi.

Navbatlari kelgach, ota oyna yoniga borib, chipta narxini so'radi. Narxni eshitgach, biroz tisarilib, xotiniga pichirlab nimadir dedi. Uning yuzida bezovtalik alomatlari yaqqol sezilib turardi. Shu payt otam cho'ntagidan 100 ming so'mni olib, yerga tashladi va egilib uni oldi-da haligi kishining kaftiga qo'ydi va "pulingiz tushib qolib", dedi.

Haligi odam ko'zlarida yosh bilan: "Rahmat, amaki", dedi. Ular tomosha zaliga kirib ketganidan so'ng otam qo'limdan tortdi va biz tashqariga chiqdik. Chunki otamning o'sha odamga bergan 100 ming so'mdan boshqa puli yo'q edi. Shunday qilib yo'lda davom etdik. Otam mendan: "O'g'lim, xafa emasmisan?" - deb so'radi. Men sekingina "yo'q" deb javob berdim. Men dadam bilan faxrlanaman.

Shu payt piyodalar yo'lagida bir ko'zi ojiz odamni ko'rib qoldim. U serqatnov yo'ldan o'tolmay qiynalayotgan edi. Yugurib borib o'sha odamning qo'lidan ushlab yo'ldan o'tkazib qo'ydim. Ko'zi ojiz kishi menga minnatdorchilik bildirdi. Dadam: "Barakalla, o'g'lim, men sen bilan faxrlanaman", - dedi.

O'sha kuni men juda xursand bo'ldim. Hayotimdagi eng go'zal voqea mana shu kuni bo'lgan edi. Bu holat sirk tomoshasidan ham chiroyliroq edi. Insonlarga nafaqat pul bilan, balki oddiy hurmat-izzat bilan ham yordam berishimiz mumkin ekan.

Masalan, avtobusda qariyalarga, yosh bolali ayollarga joy berishimiz yoki og'ir sumka ko'targan keksalarga yordamlashishimiz ham bir ibratli tarbiyadir. Tarbiya nazorat bilan emas, ibrat bilan bo'lishiga yana bir bor amin bo'ldim!

**(231 ta so'z)**

### 3-VARIANT SUV OMBORI NIMA?

Biz ustozimizga: “Suv omborlari nima uchun quriladi?”, “Bu inshootlar qanday ishlaydi?” kabi ko‘plab savollar berdik. U kishi esa savollarimizga atroflicha javob berdi.

Suv omborlari tabiatdagi chuchuk suvdan unumli foydalanish uchun quriladi. Bu inshoot qish va bahor oylarida yog‘gan qor va yomg‘ir suvlarini bir joyga yig‘ib, yomg‘ir kam yog‘adigan yoz oylarida suvni taqsimlab berish uchun zarur. Agar suv omborlari bo‘lmasa, daryolar o‘zi istagan tarafga oqib ketishi va ko‘p miqdordagi suv uvol bo‘lishi mumkin.

Suv omborining eng muhim qismi bu to‘g‘ondir. To‘g‘on daryoning yo‘lini to‘sib, shu joyda suvning yig‘ilishiga sabab bo‘ladi. To‘g‘on, asosan, vodiylarga, ikki tog‘ning o‘rtasiga quriladi. Bu sun‘iy ko‘ldan dalalardagi ekinlar sug‘oriladi, odamlar ichimlik suvi bilan ta‘minlanadi. Bundan tashqari, suv omborlarida baliq boqish, ular yordamida elektr tokini ishlab chiqarish mumkin.

Gidroelektr stansiyalari suv omborining yonginasiga quriladi. Inshootda yig‘ilgan suv quvurlar orqali katta bosim bilan chiqib kelganda GESning parraklarini aylantiradi. Bu esa magnit va simli g‘altakni harakatlantiradi. Shunda elektr toki hosil bo‘ladi.

O‘zbekiston hududida qadimdan katta-kichik suv omborlari qurilgan. Zamonaviy ko‘rinishdagi suv omborlari esa XX asr boshlarida qurilgan. Hozir yurtimizda Andijon, Kattaqo‘rg‘on, Janubiy Surxon, Pachkamar, Uchqizil kabi o‘ndan ortiq yirik suv omborlari mavjud. Shularning biri Tuyabo‘g‘iz suv ombori 1963-yilda Ohangaron daryosi oqimida qurilgan. U Toshkent viloyatining 4 ta tumanini suv bilan ta‘minlaydi.

**(204 ta so‘z)**